

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**URAZBAYEVA ILMIRA KONISBAYEVNA**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY**  
**KONTROLLINGNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA**  
**USLUBIY JIHATLARI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**по экономическим наукам**

**Contents of dissertation the abstract Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economical sciences**

**Urazbayeva Ilmira Konisbayevna**

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni shakllantirishning nazariy va  
uslubiy jihatlari.....3

**Уразбаева Илмира Конисбаевна**

Теоретико-методологические аспекты формирования финансового  
контроллинга в акционерных обществах.....25

**Urazbaeva Ilmira Konisbaevna**

Theoretical and methodological aspects of the formation of financial controlling in  
joint-stock companies..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**URAZBAYEVA ILMIRA KONISBAYEVNA**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY  
KONTROLLINGNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA  
USLUBIY JIHALARI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.I.PhD/Iqt5087 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida(www.tsue.uz) va Ziyonet (www.ziyonet.uz) Axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kurbanov Khayrilla Abdurasulovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Toshmuradova Buvsara Egamovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Elmirzayev Samariddin Eshquvatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" 06 soat 12<sup>00</sup> daqi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks:(71)239-41-23, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1682 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 06 kuni tarqatilgan.  
(2025- yil "26" 05 daqi 47 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida davlatning moliyaviy siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish jarayonlarining samaradorligiga erishish, ular moliyaviy strategiyasi ko‘rsatkichlarining maqsadli qiymatlariga rioya qilish va moliyaviy xatarlarni minimallashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Inqiroz sharoitida moliyaviy kontrollingning amaliy ahamiyati oshib boradi, bu tegishli vositalarni, shu jumladan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy nazorati sohasidagi inqirozga qarshi vositalarni ishlab chiqishni talab qiladi. “Turli tarixiy bosqichlarda, XV asrning o‘rtalaridan boshlab, dunyoda moliyaviy kontrollingning turli ilmiy maktablari shakllanib rivojlandi. Eng mashhur maktablar: Amerika va Germaniya maktablari. AQSh korxonalarini boshqarish asosida boshqaruv hisoboti va axborot yordami yotadi, Germaniya korxonalarini boshqarishning asosiy tayanchi esa, buxgalteriya: moliyaviy va ishlab chiqarish buxgalteriyasi hisoblanadi”<sup>1</sup>. Moliyaviy kontrollingni joriy etish, asosan, tashqi subyektlar bilan ishlash doirasini kengaytiradi va ular o‘rtasidagi shaffoflik, ishonchlilikning ortishiga olib keladi. Moliyaviy kontrollingning joriy etilishi natijasida, korxonana moliyaviy mablag‘larining shakllanishi to‘g‘ri amalga oshirilib, ularni jalb qilish imkoniyatlarining oshishiga ham sabab bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligining oshishiga olib keladi.

Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni shakllantirish muammolariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar kengayib bormoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash uchun daromad va xarajatlarni rejalashtirish usullarini takomillashtirish, moliyaviy hisobotning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiqligi orqali shaffofligini ta‘minlash, hisobot tahlili va samaradorlik ko‘rsatkichlarini joriy etish, aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyaviy xavflarni aniqlash, baholash va minimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish uchun moliyaviy ma‘lumotlarning xolisligi va aniqligini ta‘minlash, investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilish va xatarlarni baholash bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni olib borish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini oshirish orqali moliyaviy kontrollingni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida strategik moliyaviy kontrollingning faolligini oshirish bo‘yicha yo‘riqnoma yoki ko‘rsatmalar ishlab chiqish, uni amalga oshirishning umumiy va maxsus usullarini tanlash, moliyaviy kontrolling jarayonida ishlatiladigan taxminiy nazorat koeffitsiyentlarini to‘g‘ri tanlash, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ko‘rsatkichlarning mezonlariga erishish

---

<sup>1</sup> Пушкарева Н.А., Сорока Е.В. Зарубежный опыт развития систем контроллинга: история и современность // [https://donnasa.ru/publish\\_house/journals/esgh/2018-4/07\\_pushkarova\\_soroka.pdf](https://donnasa.ru/publish_house/journals/esgh/2018-4/07_pushkarova_soroka.pdf)

ustidan yetarli darajada nazorat o'rnatish, moliyaviy kontrolling usullarining uslubiy muvofiqligi ta'minlash orqali moliyaviy qarorlarni qabul qilishning ob'yektivligiga erishish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirish jihatlari va uni joriy etish imkoniyatlarini o'rganish, tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida", 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi 62-son "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida", 2022-yil 5-avgustdagi 431-son "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 10 iyundagi 326-son "Fuqarolar ishtirokidagi audit o'tkaziladigan obyektning aniqlash va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini jamoatchilik tomonidan baholab borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida", 2022-yil 24-martdagi 129-son "Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda soha faoliyatiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Aksiyadorlik jamiyatlarida "moliyaviy kontrolling" tushunchasining mazmun-mohiyatini o'rganish bir qator xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, V.V.Manuylenko, A.V.Vorobyev, L.N.Rodionova, E.N.Petrova, R.V.Kolesov, A.A.Lisenko, Ye.A Titova, A.V.Yeroxina, Ye.V.Peredereyeva va boshqalarning aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni joriy etishga oid tadqiqotlari, ular mablag'larini maqsadli sarflanishini ta'minlashda moliyaviy kontrollingning

faoliyat, tahliliy ilmiy yondashuvlari shakllantirilgan<sup>2</sup>. O‘zbekistonlik olimlardan: J.R.Zaynalov, S.S.Aliyeva, B.E.Toshmuradova, S.Elmirzayev, N.A.Tursunova, R.X.Karlibayeva, I.M.Alimardonov, A.M.Kadirov, Z.O.Axrоров, F.A.Mirbabayev, O.N.Xamdamov, A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminov, M.E.Raxmataliyev kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy munosabatlarni samarali boshqarish va moliyaviy kontrollingni rivojlantirish istiqbollari aniqlash, shuningdek, ularning moliyaiy siyosatini samarali olib borish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy barqarorlashtirish masalalari aks ettirilgan<sup>3</sup>.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>2</sup>Мануйленко, В. В. Система финансового контроллинга в корпорациях: содержание, виды, формы и инструментарий реализации : монография / В. В. Мануйленко, М. А. Шебзухова ; под науч. ред. В. В. Мануйленко. - Москва : Финансы и статистика, 2022. - 326 с. - ISBN 978-5-00184-075-6. - Текст : электронный. - URL: <https://znanium.com/catalog/product/1913983> (дата обращения: 17.06.2024). – Режим доступа: по подписке. Воробьев А.В., Самойлова И.П. Понятие финансового контроллинга в современной финансовой науке // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. 2014. № 2 (62). -С. 51. Л.Н. Родионова и др. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # VIII, 2014 | Экономические науки.69 стр. Петрова, Э. Н. Финансовый контроллинг / Э. Н. Петрова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 48 (338). — С. 538-541. — URL: <https://moluch.ru/archive/338/75725/> (дата обращения: 17.06.2024) Колесов Р.В Система государственного финансового контроля РФ: проблемы и перспективы: Монография. - Ярославль: ЯФ МФЮА, 2013. - 100 с А.А. Лысенко Развитие комплексно-системного подхода к реализации финансового контроллинга в государственном секторе. Финансовый менеджмент № 5-2 (2023):=, 116стр. Титова Е.А. Развитие учетно-контрольного обеспечения финансового контроллинга в вузах: дис. ... канд. экон. наук. Воронеж, 2022. 183 с. Ерохина А.В. Создание эффективной системы финансового контроллинга в обществах с ограниченной ответственностью: дис. ... канд. экон. наук. -Санкт-Петербург, 2013. 199 с. Передереева Е.В. Трансформация инструментария корпоративного финансового контроллинга в условиях цифровизации бизнес-процессов: автореф. дис. ... канд. экон. наук.- Ставрополь, 2023.

<sup>3</sup>Ж.Р. Зайналов, С.С.Алиева Малый бизнес и частное предпринимательство: состояние и развитие в быстро меняющихся условиях.// “Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, апрель, 2013 йил. 1 бет.; Toshmurodova B., Elmirezayev S., Tursunova N. Moliyaviy menejment. Darslik. -Т.:“Iqtisod-moliya -325 (2017).; Karlibayeva R. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy menejmenti. ARN. 2017 y. 35-bet.; Алимарданов И.М.. Акциядорлик жамиятларида молиявий менежментни ташкил этиш механизлари.//Journal of Fundamental Studies, (2023). 1(4), 18–22. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jofs/article/view/325>; Кадилов А.М.,Саноат корхоналари иктисодий барқарорлигини таъминлашнинг хорижий давлатлар компаниялари тажрибаси.//Иктисод ва молия. 2022, 9(157), 15 бет.; Ахроров З.О Корхоналарда молиявий режалаштиришни ташкил этиш Journal of Economics Finance and Innovation <http://sbsue.efin.uz/index.php/imij/index>. 2022 ISSN:2181- 3299 Volume-II Issue 1. 30 бет.; Мирбабаев Ф.А. Корхоналар бошқарув тизимини шакллантириш хусусиятлари ва бошқарувнинг бозор шароитидаги муаммолари. //“Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2015.1-б.; Xamdamov O.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. BFA: “Iqtisod-Moliya” -2023. – 76 бет.; A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E.Raxmataliyev. Moliyaviy menejment. - Т.: “Barkamol fayz media”, 2016, 232 бет.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

“moliyaviy kontrolling” tushunchasining mazmuni va kelib chiqish tarixini o‘rganish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni turlari va funksiyalarini tadqiq etish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingning shakllantirish bosqichlarini ochib berish;

“moliyaviy kontrolling” tushunchasi mazmunini o‘rganish, uning shakllari va turlarini tasniflash yuzasidan muallifning qarashlarini ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni tashkil etish mexanizmlarini o‘rganish va ilmiy tavsiyalar berish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingni amalga oshirishning tashkiliy jihatlariga aniqlik kiritish va ularning ahamiyatini ilmiy asoslash;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish bosqichlarini taklif etish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirishning amaldagi holatiga aniqlik kiritish va ularni jadallashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berish;

aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda moliyaviy kontrolling joriy etish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlaridagi moliyaviy kontrolling tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha turli xil vositalardan foydalanishni asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ijobiy ta‘sir qilish maqsadida moliyaviy kontrollingni shakllantirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik, vertikal tahlil, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “moliyaviy kontrolling” tushunchasining iqtisodiy mazmuni aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ma‘lumotlarini axborot va tahlil qilish asosida uning bozor qiymatini oshirishga va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan munosabatlar majmuiga iqtisodiy funksiyani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan va yuqori lavozimli xodimlar tomonidan to‘g‘ri strategik va tezkor qarorlar qabul qilishga qaratilgan korxonalarda alohida faoliyat sifatida yondashish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

«Nukus vino zavodi» aksiyadorlik jamiyatining ijobiy moliyaviy holatini ta‘minlovchi moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar tarkibini: rentabellik ( $R = 0,26$ ), to‘lovga qobiliyatlilik ( $TQ = 0,23$ ), o‘z va qarz mablag‘lari nisbati barqarorligi ( $MB = 0,28$ ), aksiyadorlik jamiyatining investitsion

jozibadorligini oshirish ( $IJ = 0,23$ ) o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling texnologiyalaridan foydalangan holda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy siyosati hamda strategik va taktik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish va baholashda nazoratning yangi usullarini joriy etish orqali kengaytirish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy kontrollingni joriy etish asosida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining optimal intervaldan og'ishi va undagi risk ko'rsatkichlarining tahlili asosida 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling shakllari, ularning turlari va joriy etish usullarini o'rganish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

moliyaviy kontrolling ta'rifi bo'yicha muallifning nazariy yondashuvi tushunchalari o'rtasidagi iyerarxik munosabatlari ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy kontrollingni joriy etishda samaradorlikka erishish jarayonlari asoslangan, bu asosiy va maxsus prinsiplarga asoslangan tizimni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro bog'liqligi va izchilligini aks ettiruvchi yo'llari taklif etilgan:

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling tizimini joriy qilish orqali strategik yo'nalishlarini mustahkamlash, turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qilish, risklarni bartaraf etish maqsadida bashorat qilish, jamiyat faoliyatini mustaqil nazorat qilish va unda zamonaviy vositalardan foydalanish tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy-uslubiy xulosa va qoidalarning xorijiy va mahalliy yetakchi olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy manbalarga muvofiqligi, O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari, rasmiy qonun va me'yoriy hujjatlardan olinganligi, tadqiqotchining izlanishlari asosida ishlab chiqilgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishning moliyaviy kontrollingni shakllantirish jarayonlari, amaliy tavsiyalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda o'rganilgan nazariy-uslubiy nuqtayi nazardan yoritilgan qoida va xulosalardan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishning moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy jihatlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada qayd etilgan taklif va tavsiyalardan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrollingdan foydalanish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy kontrolling vositalari ko'magida investitsion jozibadorlikni oshirish va aksiyadorlik jamiyati

samaradorligini ta'minlash jarayonlarini tartibga solishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishda moliyaviy kontrollingni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy kontrolling" tushunchasining iqtisodiy mazmunini aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ma'lumotlarini axborot va tahlil qilish asosida uning bozor qiymatini oshirishga va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan munosabatlar majmuiga iqtisodiy funksiyani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan va yuqori lavozimli xodimlar tomonidan to'g'ri strategik va tezkor qarorlar qabul qilishga qaratilgan korxonalarda alohida faoliyat sifatida yondashish nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlarining 60410500 – "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" bakalavriat yo'nalishi, 70410501 – "Moliya" magistratura mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan "Korporativ moliya" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-sonli buyrug'i). Natijada, ushbu qo'llanma, mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi bilan talabalarda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati, uning operatsiyalari, o'z mablag'lari salmog'ini oshirib borishga rag'batlantiruvchi moliyaviy kontrolling tizimini yo'lga qo'yish orqali uning faoliyatini tartibga solish bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

«Nukus vino zavodi» aksiyadorlik jamiyatining ijobiy moliyaviy holatini ta'minlovchi moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tarkibini: rentabellik ( $R = 0,26$ ), to'lovga qobiliyatlilik ( $TQ = 0,23$ ), o'z va qarz mablag'lari nisbati barqarorligi ( $MB = 0,28$ ), aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligini oshirish ( $IJ = 0,23$ ) o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash orqali takomillashtirish taklifidan "Nukus vino zavodi" aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy kontrolling faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy samaradorligini oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 18-fevralidagi 49-01-11-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Nukus vino zavodi" AJ ishlab chiqarish faoliyatiga kreditlar va investitsiyalarni jalb etishda moliyaviy kontrollingni qo'llash imkoni yaratilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy kontrolling texnologiyalaridan foydalangan holda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy siyosati hamda strategik va taktik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish va baholashda nazoratning yangi usullarini joriy etish orqali kengaytirish taklifi iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga solishda moliyaviy kontrolling tizimi asosida korxonalar faoliyatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 18-fevralidagi 49-01-11-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, "Nukus vino zavodi" AJ faoliyatini tartibga solish va unga

moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish asosida uzoq muddatli istiqbol ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish hamda rivojlanishning asosiy parametrlariga muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan;

aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy kontrollingni joriy etish asosida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining optimal intervaldan og‘ishi va undagi risk ko‘rsatkichlarining tahlili asosida 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan “Nukus vino zavodi” AJ faoliyatini tartibga solishning moliyaviy holatini rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 18-fevralidagi 49-01-11-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, “Nukus vino zavodi” AJ moliyaviy barqarorligi uzoq muddatli istiqbol ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish va rivojlanishning asosiy parametrlariga muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, xususan, 5 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, ulardan 3 tasi milliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 137 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ hisobning nazariy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy jihatlari tadqiq etilgan, jumladan, aksiyadorlik jamiyatlarida “moliyaviy kontrolling” tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyati ochib berilgan, korxonalarida moliyaviy nazoratchi guruh shaxslarni tashkil etish va ularga qo'yilgan vazifalarni va shu vazifalar asosida tahlillar olib borish jarayonlari uslubiyoti ishlab chiqilgan. Bu jarayonlarning korxonalar iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri va ularni qanday qilib barqororligini ta'minlash kerak ekanligi va unga ta'sir qiladigan omillarni hisobga olish borasida tahlillar keltirilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy kontrolling xizmati oldida jiddiy vazifalar, ya'ni aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish uchun barcha mavjud xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor yig'ish va batafsil tahlil qilishni ta'minlash lozim bo'lmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari direktori, moliyaviy kontrolling bo'limi boshlig'i va ishlab chiqarish bo'limlari rahbarlari o'z vaqtida va muntazam ravishda ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak va mumkin bo'lgan og'ishlar bo'lsa, ular to'g'ri qaror qabul qilishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda moliyaviy kontrollingga qiziqish 2000-yillarda boshlandi, uning kirib kelishini iqtisodiy faoliyatning haqiqiy va huquqiy tamoyillarini birlashtirish davri talab qilmoqda. Yirik sanoat korxonalarida rejalashtirish va iqtisodiy bo'limlar, moliyaviy-iqtisodiy tahlil bo'limlari hamda axborot-tahlil bo'limlarining o'rniga moliyaviy kontrolling xizmatlari paydo bo'lmoqda. "Moliyaviy kontrolling" so'ziga turli olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Rossiyalik olim E.N.Petrovaning<sup>4</sup> fikriga ko'ra, moliyaviy kontrolling - bu korxonalarda moliyaviy barqororlikni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy munosabatlar majmui hisoblanadi.

P. Drukerning fikricha<sup>5</sup>, moliyaviy kontrolling - bu faoliyatni boshqarish tizimining muhim qismi, qaror qabul qilish va amalga oshirishni ta'minlaydigan metodologiya, deb qayd etgan. Aksiyadorlik jamiyatlari samarali boshqaruv tizimi nafaqat salbiy o'zgarishlarga o'z vaqtida va tezkor javob beradigan, balki paydo bo'layotgan ijobiy o'sish imkoniyatlaridan samarali foydalanadigan vositaga muhtoj hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida kapitallar tarkibining

<sup>4</sup>Петрова Э. Н. Финансовый контроллинг.// Молодой ученый. — 2020. — № 48 (338). — С. 538-541. — URL: <https://moluch.ru/archive/338/75725/>.

<sup>5</sup>Друкер П. Финансовый контроллинг: место и роль на производственном предприятии.-136.

shaklanishidagi, to'lov layoqatsizligi, investitsiyalarning chiqib ketishi, daromadlarning pasayishi, debitorlik qarzdorlikning oshishi, korxonalar maqsadlarining aniq emasligi, moliyaviy qarorlarning tartibsiz qabul qilinishi, mahsulotlarning sifati tushishi kabi kamchiliklarni o'rganish va ularni bartaraf etish uchun moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodchi olimlar "moliyaviy kotrolling" tushunchasini ichki nazorat desalar, boshqalari kontrolligni buxgalteriya hisobiga yo'naltirilgan buxgalteriya funksiyalari deb tan oladi, uchinchi guruh olimlar esa, aksiyadorlik jamiyatlari rahbariyatining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining har bir bashoratida moliyaviy qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash vazifasini bajaradilar, deb talqin qiladi. Biz quyidagi jadvalda turli xil olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni keltiramiz.

### 1-jadval

#### Moliyaviy kontrolling bo'yicha ilmiy yondashuvlar tahlili<sup>6</sup>

Mualliflar	Ta'rif
A. V. Bogatova D. A. Karpova N. V. Novikova	Aksiyadorlik jamiyatlarining tarkibiy qismini moliyaviy boshqarish usullarini qo'llash orqali ijobiy moliyaviy ko'rsatkichlarga ega bulishga qaratilgan nazoratiga moliyaviy kontrolling deyiladi.
A. M.Karminskiy	Aksiyadorlik jamiyatlarilarda moliyaviy kontrolling tizimi odatda asosiy, moliyaviy va investision faoliyati bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar nazorati tizimi hisoblanadi.
I. I. Muxina A.V. Smirnova	Moliyaviy kontrolling-bu tashkilotning moliyaviy faoliyatining turli jihatlarini muvofiqlashtirish va ularning samaradorligini nazorat qilish, shuningdek moliyaviy natijalarning rejalashtirilgan va ularni optimallashtirishni ta'minlaydigan tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan haqiqiy og'ishlarini o'z vaqtida aniqlashga qaratilgan integratsiyalashgan boshqaruv tizimi.
L.A. Martyushova	Moliyaviy kontrolling iqtisodiy tahlil, byudjetlashtirish va inqirozni boshqarish vositasi sifatida aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari tomonidan inqiroz zonasiga kirish bosqichida aksiyadorlik jamiyatlarining asosiy ko'rsatkichlari holatini o'z vaqtida aniqlashga qodir dasturni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.
V. V.Soldatov	Moliyaviy nazorat-bu tashqi muhitning salbiy ta'siriga samarali qarshi turish, kompaniyada zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beruvchi vosita.
M.Sh. Oganyan	Aksiyadorlik jamiyatlarilarda moliyaviy mablag'larni shakllantirish va ularni boshqarish vositalari, usullari moliyaviy kontrolling deb ataladi.
M.A.Shebzuxova	Kompaniyalarda barcha faoliyati, pul oqimlarining samarali ishlatishi ustidan nazoratning majmuasi
B.E Toshmuradova O.N.Xamdakov	Korxonaning moliyaviy barqarorligi juda o'zgaruvchan bo'lib, unga korxonaning likvidiligi, to'lov qobiliyati, bozor ishchanligini ta'minlashda moliyaviy kontrolling muhim hisoblanadi.

N.A. Kazakovaning<sup>7</sup> fikricha, moliyaviy kontrolling - bu kompaniyalarning xalqaro integratsiyasi, ular faoliyatini birlashtirish, investitsiyalarini turli xil

<sup>6</sup>Muallif ishlanmasi

<sup>7</sup>Казакова Н.А. Финансовый контроллинг в холдингах. Монография.-М.: 2016 й.237 б.

sohalarga yo'naltirish, korxonalarining moliyaviy holati bo'yicha ma'lumotlarni o'rganish, ularning ishonchliligini ta'minlash boshqaruv tizimi hisoblanadi.

Ko'rib o'tganimizdek, moliyaviy kontrolling bo'yicha turli xil qarashlar mavjud, lekin olimlarning fikrlaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, to'g'ri moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun moliyaviy menejmentga sifatli tayyorlangan ma'lumotlar kerak. Nazorat ko'rsatkichlarini kuzatish imkonini beruvchi ichki buxgalteriya tizimidan foydalangan holda ma'lumot to'plash, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tartibga solish muhim ahamiyat kasab etadi.

Tadqiqotlar olib borilishi natijasida biz tomonimizdan moliyaviy kontrollingga quyidagicha ta'rif berildi; aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ma'lumotlarini axborot va tahlil qilish asosida uni bozor qiymatini oshirishga va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan munosabatlari yig'indisidir. AJ faoliyatining haqiqiy holati to'g'risida ma'lumot to'plash orqali tanlangan yo'naliishdan og'ishlar aniqlanadi va maqsadga erishish uchun og'ishlarni bartaraf etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida nazorat tizimini joriy etish ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi: tayyorgarlik bosqichi bunda aksiyadorlik jamiyatlarining joriy holati o'rganilib, tezkor tahlillar olib boriladi va amalga oshirilishi nazorat qilinadi.

Moliyaviy kontrollingning ikkinchi bosqichi quyidagilarni qamrab oladi:  
aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashi, ijroiya organlaridagi o'zgarishlar;  
qonun yoki me'yoriy hujjat asosida korxonaning boshqaruv tuzilmasidagi o'zgarishlar;

pul oqimlaridagi o'zgarishlar;  
aksiyadorlik jamiyatlari xodimlari salohiyati va ularning malakasini oshirish jihatlari o'rganiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida nazorat xizmatining kim vakili bo'lishiga va uni amalga oshirishni kim tashkil etishiga qarab, tayyorgarlik bosqichi ham amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyatining holati, uning bo'linmalari ishlashi ishlab chiqarish hajmi, narxlari, sotuv bozorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlar moliyaviy kontrollingning nazoratidan chetda qolsa, aksiyadorlik jamiyati faoliyatida muammolar yuzaga keladi. Bozor kon'yunkturasi va undagi narxlar turli xil siyosiy o'yinlar, ayrim mamlakatlarning iqtisodiy maydondagi kiritgan o'zgarishlari tufayli ham sodir bo'ladi. Shu sababli moliyaviy kontrolling raqobatchi korxonalar va bozor holatidan doimo xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu esa, o'z navbatida rejaning asosiy olingan natijasi bilan mos kelishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Aksiyadorlik jamiyatlari raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy kontrolling tizimidan foydalanish samaradorligi”** deb nomlanib, unda O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holati va ularda moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish orqali uning raqobatbardoshligini oshirish tahlil etiladi.

Menejrlarning so'rovlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, yirik aksiyadorlik jamiyatlarining aksariyat menejrlari moliyaviy kontrollingni muhim deb hisoblaydi, chunki bu ularga o'zlari boshqaradigan obyektlar raqobatbardoshligi bilan bog'liq qiyin masalalarni hal qilishda yordam beradi.

Moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga investitsion mablag‘larni jalb etish imkonini beradi. Shu bilan birga, moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish samaradorligini baholashda uning uzoq va qisqa muddatga yo‘nalishini unutmaslik kerak. Aksiyadorlik jamiyatlaridagi moliyaviy kontrollingni ijobiy yo‘lga qo‘yish natijasida, “Nukus vino zavod” aksiyadorlik jamiyati passivlarida o‘z mablag‘larining ulushi yuqori ekanligini, aktivlarga investitsiyalangan kapitalning sezilarli qismi xususiy mablag‘larga to‘g‘ri kelishini 2-jadval ma’lumotlarida ko‘rishimiz mumkin.

## 2- jadval

### “Nukus vino zavodi” aksiyadorlik jamiyati kapitallari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumot, mln. so‘m<sup>8</sup>

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Xususiy mablag‘lar	15672,3	22244,5	49672,2	58229,5	59790,4
Qarz mablag‘lar	6666,1	11144,5	3337,9	12092,4	19250,9
Jami passivlar	22338,4	33388,9	53010,1	70321,9	79041,3
Jami passivlarda xususiy mablag‘lar ulushi, %da	70,2	66,6	93,7	82,8	75,6
Jami passivlarda qarz mablag‘lar ulushi, %da	29,8	33,4	6,3	17,2	24,4

Ma’lumotlarga ko‘ra, korxonaning passivlari 2019-yilda 22338,4 mln. so‘mni tashkil qilgan, xususiy mablag‘lar miqdori 15672,3 mln.so‘mni tashkil etgan. 2023-yilga kelib, ushbu ko‘rsatkich 59790,4 mln. so‘mga oshgan.

2019-yilda qarz mablag‘lari 6666,1 mln. so‘mni tashkil etib, 2023 yilda 19250,9 mln. so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich ham oshganligini ko‘rish mumkin.

Jami passivlarda xususiy mablag‘lar ulushining ortib borishi avvalo aksiyadorlik jamiyatining strategik rivojlanish yo‘nalishida ichki imkoniyatlarining maksimal ishga solinishiga bog‘liq bo‘lib, unda moliyaviy resurslarning barqaror ichki manbai, ya’ni sof foyda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi jadvalda aksiyadorlik jamiyatlarining to‘lovga qobiliyatlik holatini ko‘rib o‘tamiz.

## 3- jadval

### Aksiyadorlik jamiyatlarining to‘lovga qobiliyatlik holati<sup>9</sup>

Aksiyadorlik jamiyatlari nomi	2019	2020	2021	2022	2023
“Nukus vino zavodi”	0,05	0,07	0,09	0,12	0,23
"Shaxrisabz vino-arq"	0,03	0,5	0,07	0,11	0,15
"Urganch sharob"	0,05	0,07	0,09	0,12	0,24
“Sirdaryo vino”	0,08	0,13	0,16	0,19	0,19

<sup>8</sup>“Nukus vino zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2019-2023-yillik moliyaviy hisobotlari asosida shakllantirilgan.

<sup>9</sup>“Nukus vino zavodi”, "Shaxrisabz vino-arq", "Urganch sharob", “Sirdaryo vino” AJ ma’lumotlari

Tahlil qilinayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi koeffitsiyentlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, korxonalarda barqaror moliyaviy holatni kuzatish mumkin. Tahlil qilinayotgan har to‘rtta aksiyadorlik jamiyatida ham to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti barqaror darajada bo‘lgan. Xususan, ushbu davrlarda joriy aktivlar qisqa muddatli majburiyatlarni to‘liq qoplash imkoniyatiga ega bo‘lgan. Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion faoliyatni jadallashtirish, shuningdek, ish beruvchilar, banklar va boshqa moliyaviy munosabatlarni samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi. Moliyaviy kontrollingni joriy etish, asosan, tashqi subyektlar bilan ishlash doirasini kengaytiradi va ular o‘rtasidagi shaffoflik, ishonchlilikning ortishiga olib keladi. “Nukus vino zavodi” aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligini qo‘yidagi jadvalda ko‘rib o‘tamiz.

#### 4-jadval

#### “Nukus vino zavodi” aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligi bo‘yicha ma’lumot<sup>10</sup>

Ko‘rsatkichlar mohiyati	AJning investitsion jozibadorligi holati tavsifi
$0,05 > IJ$	AJning past investitsion jozibadorligini bildiradi. Investitsion faoliyatni qo‘llab-quvatlash dastaklarini joriy etish talab etiladi
$0,05 \leq IJ < 0,1$	AJ investitsion jozibadorligi o‘rta me‘yordan pastligini ko‘rsatadi. Ushbu faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish talab etiladi
$0,1 \leq IJ < 0,2$	AJ da faoliyati bo‘yicha moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida investitsion jozibadorlikning me‘yorida ekanligini ko‘rsatadi
$0,2 \leq IJ < 0,4$	Yuqori ishlab chiqarish quvvatiga asoslangan faol investitsion jozibadorlik mavjudligini ko‘rsatadi
$0,4 < IJ$	Investorlar uchun qulay infratuzilmaning mavjudligi, ishlab chiqarish darajasining ijobiyliги asosida investitsion jozibadorlikning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Jadval ma’lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, ushbu aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligi 0,23 ni tashkil etgan, bu esa o‘z navbatida korxonaga jalb qilingan investisiyalarning maqsadli sarflanayotganligi tufayli investitsion jozibadorlik darajasi yuqori bo‘lgan.

Moliyaviy kontrolling tizimini joriy etish aksiyadorlik jamiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik omillari, ishbilarmonlik munosabatlari standartlari, xarajatlar va boshqalar jarayonida raqobat muhitining imkoniyatlarini yaxshilash, davlat tomonidan tartibga soluvchi nazorati ostida fond bozori va kredit kapitalini rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirish, ichki hujjatlar, qoidalar, sanoat korxonasining funksional hisobi, monitoringi, auditori va hisoboti tamoyillari doirasida ma’lumotlarning shaffofligi va ochiqligining zamonaviy tizimini yaratish, korporativ munosabatlar, menejerlar, maslahatchilar va munosabatlarning boshqa ishtirokchilarining imkoniyatlarini o‘zgartirish, korxonani muvozanatli

<sup>10</sup>Muallif ishlanmasi

rivojlantirish tizimini shakllantirish, sanoat korxonalarini muvozanatli rivojlantirish trayektoriyasini nazorat qilish va nazorat qilish, aksiyadorlik jamiyatlarini muvozanatli rivojlantirish uchun "ijtimoiy ta'siri" tizimlarini optimallashtiradi. (5-jadval).

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi, mablag'larning aylanish samaradorligi, moliyaviy qaramlilik darajasi bevosita uning xususiy kapitalining holatiga bog'liq bo'ladi. Qu'yidagi jadvalda aksiyadorlik jamiyatlarida o'z va qarz mablag'lari nisbatini ko'rib o'tamiz.

#### 5- jadval

#### Aksiyadorlik jamiyatlarida qarz mablag'larining o'z mablag'lariga nisbati koeffitsiyenti<sup>11</sup>

Aksiyadorlik jamiyatlari nomi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
"Nukus vino zavodi"	0,19	0,21	0,20	0,20	0,28
"Shaxrisabz vino-arob"	0,12	0,14	0,15	0,17	0,19
"Urganch sharob"	0,19	0,19	0,20	0,20	0,21
"Sirdaryo vino"	0,16	0,16	0,16	0,17	0,17

Jadvalda qarz mablag'lari nisbati koeffitsiyentining aksiyadorlik jamiyatlari ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan bo'lib, "Nukus vino zavodi" aksiyadorlik jamiyatida ushbu ko'rsatkich, 0,28 ni, "Urganch Sharob" AJda 0,21 ni tashkil etgan. "Shaxrisabz vino-arob" va "Sirdaryo vino" korxonalarida nisbatan pastligini kuzatamiz.

6-jadval ma'lumotlaridan "Nukus vino zavodi" aksiyadorlik jamiyatida o'z kapital tarkibida taqsimlanmagan foydaning ulushi 4 barobarga yaqin oshganligini ko'rishimiz mumkin.

#### 6-jadval

#### "Nukus vino zavodi" aksiyadorlik jamiyati o'z kapitallari tarkibi to'g'risidagi ma'lumot, jamiga nisbatan foizda<sup>12</sup>

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Ustav kapital	44,7	31,5	17,0	14,5	14,1
Qo'shilgan kapital	0	0	28,1	24,0	23,4
Zaxira kapitali	43,5	33,0	16,9	19,6	20,1
Taqsimlanmagan foyda	11,7	35,5	37,9	41,9	42,4
Jami xususiy mablag'lar	100	100	100	100	100

Ustav kapitalining ulushi 2019-yilda 44,7 foizdan 2023-yilda 14,1 foizga pasaygan. AJ xususiy kapitalning oshishi, asosan, taqsimlanmagan foyda va

<sup>11</sup>"Nukus vino zavodi" aksiyadorlik jamiyatining 2019-2023-yillik moliyaviy hisobotlari asosida shakllantirilgan.

<sup>12</sup>"Nukus vino zavodi" aksiyadorlik jamiyatining 2019-2023-yillik moliyaviy hisobotlari asosida shakllantirilgan.

qo‘shilgan kapital evaziga amalga oshgan. Moliyaviy kontrollingni aksiyadorlik jamiyatlariga joriy etish orqali korxonada faoliyatidagi mavjud kamchiliklarning oldini olish va uning bozordagi mavqeini ta‘minlashdan iboratdir. Buning uchun, albatta, eski usullarni yangi zamonaviy instrumentlardan foydalanish orqali amalga oshirish taqozo etiladi.

Quyidagi jadvalda «Nukus vino zavodi» AJning rentabellik ko‘rsatkichlari berilgan.

**7-jadval**

**«Nukus vino zavodi» AJ ning rentabellik koeffitsiyentlari<sup>13</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Aktivlar rentabelligi	0,043	0,066	0,054	0,001	0,004
Asosiy aktivlar rentabelligi	0,246	0,454	0,765	0,004	0,001
Joriy aktivlar rentabelligi	0,221	0,072	0,059	0,001	0,003
Mahsulot realizatsiyasi rentabelligi	0,117	0,086	0,069	0,001	0,26

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatining ijobiy moliyaviy holatini ta‘minlovchi moliyaviy kontrolling tizimini shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillar tarkibida rentabellik muhim hisoblanib, 2019-yilda mahsulot realizatsiyasi rentabelligi 0,117 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga keli, b 0,26 ni tashkil etgan.

**8-jadval**

**"Urganch sharob" va "Sirdaryo vino" aksiyadorlik jamiyatlari asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma‘lumot<sup>14</sup>**

Ko‘rsatkichlari	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
<b>"Urganch sharob" AJ</b>					
Sof foyda (%)	0.43	0.35	1.5	1.22	0.99
Kapitallar rentabelligi (ROYe) (%)	1.72	1.25	0.65	1.05	3.55
Aktivlar rentabelligi (ROA) (%)	1.24	0.84	0.52	0.78	2.14
Qarzdorlik koeffitsiyenti (%)	27.68	32.53	21.24	25.88	39.84
Qarz mablag‘larining o‘z mablag‘lariga nisbati (%)	38.26	48.21	26.98	34.92	66.21
<b>"Sirdaryo vino" AJ</b>					
Sof foyda (%)	3.02	9.52	6.87	10.41	9.8
Kapitallar rentabelligi (ROYe) (%)	6.23	14.92	5.66	14.01	7.18
Aktivlar rentabelligi (ROA) (%)	5.17	13.61	5.18	12.74	6.3
Qarzdorlik koeffitsiyenti (%)	17.02	8.76	8.59	9.03	12.3
